

"ORGANIZATION OF THE CRUSADES. THE IMPORTANCE OF THE CRUSADES FOR EUROPE."

Boborahimov Shoxruhbek

2nd Year Student of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Akhtamova Khurshida

2nd Year Student of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Rakhmonkulov Mamurjon

2nd Year Student of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ANNOTATION

"Organizing the Crusades. The Importance of the Crusades for Europe" describes the reasons for the Crusades, the organization of the Crusades, the goals of the peasants who took part in the Crusades, the leaders who led the Crusades, and the importance of the Crusades for Europe.

Keywords: Crusades, Mansikert, Alexei Komnin, Urban II, Clermont, Peter Amensky, Little Armenia, Louis VII, Konrad III.

INTRODUCTION

Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to Xlll asr oxirigacha uzoq vaqt davomida Yaqin Sharqda - Suriyada, Falastinda, Misrda, Bolqon yarim orolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borgan harbiy-kolonizasiya ekspeditsiyalari ko'zda tutiladi. Tashqi jihatdan bu ekspeditsiyalar diniy ruhdagi ekspeditsiyalar edi, chunki katolik cherkovi bu kurashni butning yarim oyga qarshi, xristianlikning islomga qarshi kurashidir, deb e'lon qilgan edi. Salib yurishlarining sabablarini qisman XI asrning ikkinchi yarmida Yaqin Sharqda yuz bergan o'zgarishlardan, qisman feodal G'arbiy Yevropaning o'zidagi umumiyligi iqtisodiy taraqqiyot va keskin ijtimoiy ziddiyatlardan qidirmoq kerak. XI asr oxiri Xll asr boshida salib yurishlaridagi g'oyat muhim masala - dehqonlar masalasi edi. Papa Urban II 1095-yilning kuzida Janubiy Fransiyaning Klermon shahrida ko'p kishilik cherkov yig'inini to'plab, unda so'zga chiqib "kofirlar" ga qarshi kurashmoq uchun Sharqqa jo'nab ketishga da'vat etdi. Urbanning asosiy da'vati "Iso payg'ambar qabrini" xristianlarga qaytarib olib berish va muqaddas Falastinni xalos qilishdan iborat edi. (1).

Salib yurishlari boshlanishi 1096-yilga to'g'ri keldi. 1096-yilning bahorida Shimoliy va Sharqiy Fransiyaning qisman G'arbiy Germaniyaning dehqonlar ommasi salib yurishlari uchun yo'lga tushdi. Dehqonlarga monax Pyotr Amenskiy (Pyotr Pustinnik) va kichik mulkdor ritsar Valter Golyak boshchilik qildilar. Salibchi dehqonlar sostavida o'g'irlik va talonchilik qilishdan manfaatdor bo'lgan betayin, sayoq insonlar ham kam emasdi. Bu hol salibchilar "kofirlar" istiqomat qiladigan yerlarga yetib bormasdanoq ma'lum bo'lib qoldi. Ularning Vengriya va Bolgariya singari mamlakatlar orqali o'tib, bu yerlarda ham talonchilikni davom ettirdilar. Salibchilar olomoni Konstantinopolga kirib kelgach, imperator ularning tartibsizlik ko'rsatishi va zo'ravonlik qilishidan xavfsirab, ularni Kichik

Osiyo sohiliga jo‘natib yuborishga shoshildi. Kichik Osiyo sohilida salibchilar olomoni tez orada turk qo‘shiniga to‘qnash keldi va ular salibchilarning ko‘pchilik qismini qirib tashladi. Shunday qilib salibchilarning Sharqqa qilgan yurishi batamom mag‘lubiyatga uchradi. (2).

Harbiy ekspeditsiyalar sifatidagi salib yurishlari batamom muvafafaqiyatsizlik bilan tugadi. Yevropa feodallari Sharqda mustahkam davlat barpo eta olmadilar. Istilo qilingan deyarli barcha hududlarni qoldirib ketishga to‘g‘ri keldi. Harbiy muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, har qalay salib yurishlarining G‘arbiy Yevropa taraqqiyoti uchun ahamiyati go‘yat katta bo‘ldi. Avvalo salib yurishlari O‘rta dengiz bo‘yi mamlakatlarida Yevropa savdo-sotig‘ini rivojlanishiga yordam berdi. Bu salib yurishlari natijasida arab va vizantiyalik savdogarlarning Yaqin Sharqdagi savdo monopoliyasi qattiq zARBAGA UCHRADI va bu yerlarda Italiya, Janubiy Fransiya va Sharqiylar Ispan(Kataloniya) shaharlari gegemoniyasi o‘rnatildi. Ammo salib yurishlarining G‘arbiy Yevropaga ko‘rsatgan ta‘siri haqida gapirilar ekan, Arablar sharqning madaniyati salib yurishlaridan tashqari, boshqacha yo‘llar bilan, jumladan, Ispaniya orqali Yevropaga o‘tib kirganligini ham unutmaslik kerak. Chunonchi dehqonlarning krepostnoy qaramlikdan ozod bo‘lishi, markazlashgan dablatlarning rivojlanishi, shaharlarning ravnaq topishi Yevropadagi tarixiy taraqqiyotning o‘ziga xos jarayonidan boshqa narsa emas edi. Salib yurishlari keyingi o‘rta asr Yevropasi hayotidagi bu eng muhim hodisalarining rivojini tezlatdi, xolos. (3).

Salib yurishlarini xulosalaydigan bo‘lsak birinchi navbatda bu yurishlarning sababi, diniy maqsad emas, balki dunyoviy maqsad natijasi bo‘lib, bu yangi yerlarni va boyliklarni bosib olishga qaratilgan edi bundan tashqari salib yurishlarining haqiqiy mohiyatini toprtinchi salib yurishi yaqqol ko‘rsatdi. Bu yurish Misr orqali "xudo qabrini" ozod qilishga qaratilgan edin, lekin u Konstantinopolni talash bilan tugallandi. Aytishimiz mumkinki, to‘rtinchi salib yurishi g‘arb va sharq xristianlarining urushiga aylanib ketdi. Bu yurishlar natijasida Sharq va uning madaniyatining G‘arbga ta‘siri katta bo‘ldi. XII-XIII asrlarda Sharqda yashagan salib yurishi qatnashchilari "Iso qabriga" ziyyaratga kelganlar va bu yerdagi madaniyat, urf-odat, fan-texnika yutuqlari bilan tanishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T. O‘. Salimov "Jahon tarixi". Toshkent - 2014.
2. S.F. Atabekova "O‘rta asrlar tarixi". Toshkent - 2001.
3. Semyonov "Jahon tarixi".